Innovatsion qarashlar asosida raqamli ta'lim tashkil etish metodikasi.....	2150
Pozilova Sh. X., Choriyeva Xursanoy Xusanovna	
Bolalik – insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.....	2153
Gaziyeva Nigora Shamsiddinovna, Xodjimato Nazira Toshmatovna	
Umumta'lim maktablarida strategik rejalashtirishning sifat ko'rsatkichlari.....	2157
Mamayusupova Muattar Qosimjonovna	
Psychodiagnostics of the Relationship Between Existential Vacuum and the Religious Factor in an Individual.....	2161
Saydaliyeva Mehriniso Umidullayevna	
Современное дошкольное образование Финляндии: сравнительный анализ с системой дошкольного образования Узбекистана	2165
Владимирова Любовь Владимировна	
Сложносокращённые слова в средствах массовой информации	2168
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Biologiya fanini o'qitishda elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalarning metakognitiv rivojlanishga ta'siri	2172
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Цифровая лингвистика и корпусные исследования русского языка: применение компьютерных технологий для анализа лексики, морфологии и синтаксиса.....	2178
Марупова Дилфуза Давроновна	
Filolog talabalarida tanqidiy fikrlashga asoslangan pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	2182
Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi	
Pedagogik ta'limda tadqiqiy faoliyatni integratsiyalash texnologiyalari: nazariy va amaliy jihatlar	2186
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Теоретические и методологические основания изучения психолингвистики в Узбекистане.....	2190
Мусаева Елена Казимовна	
Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari.....	2193
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda klaster metodining ahamiyati	2198
Badalov Dilmurod Abdixalilovich	
Using STEM Technologies to Help Develop Logical Thinking.....	2202
Akhmedov Alisher Astanovich, Vasitov Otabek	
Matematik kompetentlik tushunchasining ahamiyati	2205
Ismoilov Bobur Toxirovich	
Yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni o'rgatish metodikasi	2210
Murzambetova Mexriban Begdullayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik kompetensiyani shakllantirish.....	2215
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda ota-onalarning o'рни.....	2219
Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA OTA- ONALARNING O'RNI

Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna

TerDPI Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish
kafedrası o'qituvchisi PhD, dotsent

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda oilada muntazam olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona hamda umumbashariy qadriyatlar asos bo'lib xizmat qiladi va ular mamlakat hamda millat kelajagini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, oila, xalq og'zaki ijodi, milliy g'urur, ma'naviy tarbiya, ma'naviy-madaniy meros.

Abstract: In the process of spiritual, educational, and moral activities systematically carried out in preschool educational institutions and within the family, particular importance is attached to the formation of children's loyalty to the Motherland, a sense of national pride, and respect for the spiritual heritage of great ancestors. In this context, the rich spiritual and cultural heritage of the people, along with Eastern and universal human values, plays a crucial role and serves as a key factor in determining the future of the nation and the state.

Key words: preschool education, family, folklore, national pride, moral education, spiritual and cultural heritage.

Аннотация: В процессе духовно-просветительской и воспитательной работы, систематически организуемой в дошкольных образовательных учреждениях и в семье, особое значение приобретает формирование у детей дошкольного возраста чувства преданности Родине, национальной гордости и уважения к духовному наследию великих предков. В данном процессе важную роль играет богатое духовно-культурное наследие народа, а также восточные и общечеловеческие ценности, которые выступают определяющим фактором будущего страны и нации.

Ключевые слова: дошкольное образование, семья, устное народное творчество, национальная гордость, духовное воспитание, духовно-культурное наследие.

KIRISH

Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabatlar, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, ota-ona, aka-uka va boshqalarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti hamda boshqa holatlar bo'lib, ular bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillar hisoblanadi. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli bo'lsa, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar samimiy kechsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda milliy g'ururni shakllantirishda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki oilaning mavjud holatini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalarning bo'sh vaqti asosan uyda, oila davrasida o'tadi. Buni hisobga olmaslik, yosh avlod tarbiyasida ota-onaning burchi va vazifalari haqida yanada chuqurroq o'ylamaslik xato bo'ladi.

Milliy g'ururning muhim jihatlardan biri Vatanga, millatga, el-u yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z yuritish mumkin emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Imom ibn Kudoma o'zining "Minxojul-kosidin" nomli kitobida bir necha odoblarni zikr qiladi: "Bola voyaga yetib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo'lsa, uni yaxshi kuzatish va ahvolini o'rganish lozim bo'ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo'lib, u har qanday naqshni qabul qilishga tayyor. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg'ayadi. Agar yomonlikka odatlansa, yomonlik bilan ulg'ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo'yniga tushadi. Shuning uchun bolani ehtiyot qilish, tarbiyalash, yomonliklardan pok tutib, yaxshi axloqlarni o'rgatish lozim. Agar bola yuzida hayo nurlari ko'rinib, ba'zi ishlardan uyalsa va hayo qilsa, uni yomon deb bilsa, bu Yaratganning hidoyati, axloqining yaxshiligi va qalbining tozaligiga dalolat qiladigan yaxshilikdir. Agar bolaning holati shunday bo'lsa, u balog'atga yetganda komil, aqlli bo'lib, kelajagi porloq bo'ladi. Bolaga chiroyli odob berishga rioya qilish diqqat-e'tiborga sazovor ishdir".

Milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning hamda jamoatchilikning Vatan oldidagi burchidir. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan ham milliy g'urur va mafkuraviy ta'lim ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analарimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Chunki davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga yetishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'z navbatida, milliy g'urur millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi.

Yosh avlodni bolaligidan boshlab milliy g'ururli, kishilarga mehr-muhabbatli, izzat-hurmatli bo'lish, Vatanning qadriga yetish va uni hurmat qilish kabi ijobiy hislatlar ruhida tarbiyalab borish barchamizning vazifamizdir.

Oilaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini o'zbek xalqi qadimgi davrlardan o'ziga qadidlab kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da oila tarbiyasi masalalariga alohida urg'u berilgan. Ushbu asarda oilani himoyalash, bir necha farzandni dunyoga keltirib, tarbiyalagan ayollarni mukofotlash, ularga nafaqa tayinlash to'g'risidagi g'oyalar o'z aksini topgan.

Islomiy qadriyatlarda ham oilada farzandni jamiyatga munosib inson qilib tarbiyalash, uni axloqli, mehnatsevar, go'zal fazilat egasi etib shakllantirishga alohida ahamiyat beriladi. Xususan, "Ota o'z farzandiga axloq-odobdan ko'ra ko'proq meros qoldira olmaydi", degan hadisda oila tarbiyasidagi eng muhim jihat – farzandga axloq-odob in'om etish ekanligi uqtiladi.

Tarixiy asarlarda mashhur shaxslarning onalari, ularning dono va zukkoligi, farzand tarbiyasida xalq og'zaki ijodidan foydalanganliklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Masalan, Ibn Arabshohning "Amir Temur" asarida Amir Temurning zavjalari Saroy-mulkxonim (Bibixonim)ning davlat ishlarida hamda bola tarbiyasida tutgan o'rni to'g'risida misollar keltirilgan. Abu Ali ibn Sinoning "Tadbiri manzil" asari oilaviy tarbiya muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda bola tarbiyasida xalq og'zaki ijodining ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan.

"Tadbiri manzil" risolasida Ibn Sino inson tabiati azaldan axloqiy yoki axloqsiz bo'lmashligini ta'kidlaydi. Odamlar aslida tayyor shaxsiy sifatlar, odatlar va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydi. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari hamda ta'lim-tarbiya ta'siri ostida shakllanib boradi. Bolalar tarbiyasini barvaqt boshlash ma'qul. Tarbiya jarayonida ularga ijobiy odatlarni singdirib borish, ishtiyoq va qiziqishlarini sinchkovlik bilan payqab olishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bolaning barkamol inson bo'lib yetishishida xalq og'zaki ijodining ta'siri, shuningdek, uning natijasida vujudga keladigan ruhiy va fiziologik holatlar haqida mulohaza yuritilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalangan bola chidamli, mard, jasur va mehnatsevar bo'lib ulg'ayishi ta'kidlangan.

Ibn Sino oila tarbiyasida otaning o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, oila boshlig'i oila a'zolarini tarbiyalashi va ularni to'g'ri yo'lga boshlashi lozim.

Umuman olganda, Sharq mutafakkirlari barkamol inson tarbiyasida oila, oiladagi muhit va irsiyat kabi omillarga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar hamda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yuqori baholaydilar.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ota-ona va farzandlar o'rtasida mehr-oqibatni saqlash masalasiga alohida urg'u beriladi. Unda ota o'z o'g'liga nasihat qilar ekan, xalq donishmandligidan unumli foydalanadi. Bola tarbiyasiga oqilona yondashish, xalq donishmandligidan keng foydalanish, hattoki farzanddan norozi bo'lganda ham uni qarg'ash va urushishdan saqlanish, bu borada ustozlardan ko'mak so'rash lozimligi uqtiladi.

Shu jihatdan olganda, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida oilada bolalarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda, ayniqsa, buvi va bobolarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibida unga yondosh manbalar, jumladan, milliy urf-odatlar, an'analар, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar, xalq amaliy san'ati, musiqa, qo'shiq va raqs kabilar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lgan ertaklar bolaning ilk yoshidanoq unda quvonchli tuyg'ularni vujudga keltiradi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislariga "sayohat qiladi" va u yerdagi hayot bilan tanishadi.



Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi hamda tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Oilada aytilgan ertakning ravon va obrazli til uslubi bola nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yorqin, hayotiy obrazlar bolaning hissiyotlariga chuqur ta'sir qiladi. U aqlli, oqko'ngil va ijobiy qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo'liqqanida qayg'uradi, g'alaba qozonganida esa yovuz va xasis kishilar jazolanganda quvonch hissini tuyadi. Oilada kattalar tomonidan aytilgan ertaklarning ishonchli axloqiy g'oyalari bola tafakkurini rivojlantiradi hamda o'z xatti-harakatlarini ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan qiyoslashga undaydi. Qahramonlar timsolida bolalar qo'rqmaslik, rostgo'ylik, aniq maqsadlar qo'yish, ularga erishish yo'lida harakat qilish, turli to'siqlarni yengib o'tish, do'stlashish va o'rtoqlarga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlarni bosqichma-bosqich egallab boradilar.

Oilada kattalar tomonidan aytilgan ertaklarni bola katta qiziqish bilan tinglaydi. Ertak bolaning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi zarur. Uni sekin-asta, shoshmasdan, ifodali tarzda o'qish hamda obrazlar qiyofasini bola ko'z oldida gavdalandirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Farzand bilan birgalikda ota-onalarning ertakka mos syujetli rasmlarni tomosha qilishlari va ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga murakkab bo'lmagan savollar berish, uni ertak yoki rasm mazmunini qayta so'zlab berishga undash amaliy pedagogik jihatdan foydalidir. Bu jarayon bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantirib, o'qilgan materialga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Bu davrda bolaning hayotiy tajribasi hali yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli ertak va real olam uning tasavvurida keskin farqlanadi. Bola "Chindan ham jodugar kampir, dev, uchar gilam bo'lganmi?" kabi savollarni berishi mumkin. Bunday hollarda ota-ona ehtiyotkorlik bilan ertaklar va real borliq o'rtasidagi aloqadorlik hamda farqlarni tushuntirib borishi lozim. Aks holda, bolaning tasavvur qilish qobiliyatiga putur yetishi va ertaklarga nisbatan qiziqishi susayishi mumkin. Masalan, uchar gilam timsolida fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan samolyotlar, oynai jahon o'rinda esa televizor ixtiro qilinganligini izohlab berish maqsadga muvofiqdir. Bola ulg'aygan sari ertak va real hayot o'rtasidagi bog'liqlikni anglab boradi hamda undagi axloqiy-estetik qarashlarni tobora chuqurroq o'zlashtiradi.

Ertak, rivoyat va hikoyatlar bolaning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri real voqealarning bolaning yoshi va dunyoqarashiga mos tarzda afsonaviy hamda tushunarli shaklda talqin qilinishidir. Bola ruhiy olamiga yaqin kuchli va adolatli insonlar, yoqimtoy jonivorlar xalq og'zaki ijodi qahramonlari sifatida gavdalanadi. XIII–XVI asrlarda Temuriylar saltanatida zodagonlar va saroy ahlining farzandlarini sog'lom, oqila, baquvvat, odobli va so'zga chechan ayol enagalar tarbiyalaganlar. Ayniqsa, enagalarning sog'lomligi, ozodaligi va zukkoligiga katta e'tibor qaratilgan. Enagalarning bola tarbiyasidagi asosiy vazifalari bolani o'z vaqtida ovqatlantirish, ozoda kiyintirish, toza havoda sayr qildirish hamda axloq-odobdan saboq beruvchi rivoyat va dostonlarni so'zlab berishdan iborat bo'lgan. Qissa, ertak, rivoyat va jangnomalar orqali enagalar bolalarni go'zal axloqli, zukko, hozirjavob va uddaburon qilib tarbiyalashga intilganlar.

Ushbu maqsadda ular xalq maqollari, matallar va topishmoqlardan ham keng foydalanaganlar. Enagalarning xalq og'zaki ijodi namunalari asosida qo'llagan tarbiya usullari bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, o'rnak-namuna ko'rsatish va o'git-nasihat berish orqali Vatanga muhabbat, jasurlik, ilmga intilish, adolatparvarlik, to'g'riso'zlik, mardlik, do'stlik, sadoqat, ahillik, sog'lom va baquvvat bo'lishga intilish, ozodalikka rioya qilish kabi axloqiy fazilatlar shakllantirilgan. Mazkur maqsadda ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, maqollar va qo'shiqlardan foydalanilgan.

Bundan tashqari, oilada qiyoslash, chiniqtirish, ayrim xususiyatlarni bo'rttirib tasvirlash kabi mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi shakllar qo'llanilgan. Bolalarda hozirjavoblik, so'zga chechanlik va ravon nutqni shakllantirishda esa topishmoq va tez aytishlardan foydalanilgan.

Bolalarda epchillik, do'stlik, haqgo'ylik va o'zligini namoyon eta bilish kabi fazilatlarni shakllantirishda turli milliy o'yinlardan ham keng foydalanilgan.

Tarix asrlar guvohi bo'lganidek, xalq milliy ruhining aksi hisoblangan maqollar ota-bobolarimiz so'zi sifatida avlodlardan avlodga yetib kelgan, xalq og'zaki ijodini boyitib turuvchi noyob durdonalardir. "Otar so'zi – aqlning ko'zi", deb e'tirof etilgan maqollarning kundalik hayotda, odamlarning o'zaro muomalasida qo'llanilishi kishining zehni o'tkirligi va farosatligidan darak beradi. Maqollarning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri salmoqli bo'lib, undagi dono fikrlarni bolalar ongiga singdirish, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini farqlay olishga mustahkam zamin yaratadi.

Xalq maqollari yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirishda, nutq madaniyatini rivojlantirishda va barkamol-lashuvda muhim manba hisoblanadi. Kelajagimiz davomchilari bo'lmish o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat, ezgulik tuyg'ularini uyg'otish, ota-bobolarimiz merosi bo'lgan milliy qadriyatlar, milliy an'analar hamda g'urur-iftixorni tarbiyalashda xalq maqollari alohida o'rin egallaydi.

Maqollar xalqning tarixiy tajribasida muhim tarbiya vositasi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ulardan kundalik hayotda keng foydalanib kelinadi. Ayniqsa, oilaning katta a'zolari bolalarni yaxshilik, ezgulik, qanoat, ozodalik va mehnatsevarlikka undash jarayonida maqollardan o'rinli foydalanadilar. Maqol qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy jihatdan tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap bo'lib, u bolani mustaqil fikrlashga undaydi, lo'nda va aniq fikr bayon qilishga o'rgatadi hamda muayyan ritmik shaklga ega bo'ladi. Maqollarda



avlod-ajdodlarning hayotiy tajribasi, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari hamda ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Ular asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga ega bo'lgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va rang-barangdir. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, shuningdek, salbiy illatlar haqida turli mazmundagi maqollar yaratilgan. Turkiy xalqlar maqollaridan dastlabki namunalar Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan.

Maqol ba'zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy hamda tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Maqol va matal o'rtasidagi farq shundaki, matalda narsa va hodisaning tasviri beriladi, maqolda esa to'la va tugal fikr-xulosa ifodalanadi.

Oilada aytiladigan rivoyatlar ham bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivoyat voqea va hodisalar, inson faoliyatini ba'zan uydirma unsurlar yordamida, ba'zan esa real holatda tasvirllovchi og'zaki hikoya shaklida bayon etiladi. Rivoyatlar, odatda, qisqa hajmga ega bo'lib, ikki yoki uch epizoddan tashkil topadi va an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Ko'pincha oddiy hikoya bayoni tarzida boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyatlar asosida tarixiy voqelik yoki muayyan shaxslar faoliyati yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, ular tarixiy va toponim rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda muayyan shaxslar faoliyati hamda xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar tasvirlanadi, axloq va odobning ideal me'yorlari targ'ib etilib, muayyan dalillar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur va boshqa tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq holda yaratilgan. Toponim rivoyatlarda esa shahar va qishloqlar, qo'rg'onlar, saroylar va maqbaralar nomlari hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi.

Hadislarda ham oila munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, farzandlarni halol va komil inson etib tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Hadislar farzandlarni ota-onaga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, er-xotin o'rtasida muros va ahillikni ta'minlashga, insonlarni axloqan yetuk, ruhan pok, boshqalarga nisbatan rahmli va mehr-shavqatli bo'lishga da'vat etadi.

Islom olamining mashhur muhaddisi Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" asarining 1–24-boblarida ota-onaga hurmat ko'rsatish, ularni e'zozlash va farzandlarning ular oldidagi burchlarini to'laqonli ado etish zarurligi yoritib berilgan.

Hadislar yosh avlod ongida halollik, ezigulik, mehribonlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, do'stlik, kamtarlik, chidamlilik hamda sabr-qanoat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda ota-onalarning o'rni empirik va nazariy usullar uyg'unligida o'rganildi. Ma'lumotlar pedagogik kuza-tish, ota-onalar bilan yarim tuzilgan suhbatlar, so'rovnoma hamda mavjud ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish orqali olindi. Kuzatish jarayonida oilada ertak, maqol, rivoyat va boshqa folklor namunalariidan foydalanish holatlari hamda ularning bolalar xulq-atvoriga ta'siri qayd etildi. So'rovnomalarda orqali ota-onalarning bu jara-yonga munosabati, bilim va tajriba darajasi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali ilmiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari ota-onalarning faol ishtiroki milliy g'urur hissini shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarda to'g'rilik, haqqo'ylik, kamtarlik, o'z-o'ziga tanqidiy qarash, jonku-yarlik va samimiylik, andishalilik kabi axloqiy sifatlarni shakllantirishda, shu bilan birga yolg'onchilik, kibr-havo, o'z-o'ziga bino qo'yish, xudbinlik, andishasizlik kabi illatlarga qarshi kurash tuyg'usini paydo qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolaning o'z maqsadi yo'lida fidoyilik, qat'iyatlilik, mardlik va o'zini tuta bilish kabi irodaviy xususiyatlari ham xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida samarali shakllantiriladi. Bunday sifatlarga ega bo'lgan bolalar har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida voyaga yetadi.

Hozirgi zamon pedagogikasi bola shaxsiga hurmat bilan yondashishni, uning shaxs sifatidagi betakror-ligini tan olishni talab etadi. Mazkur yondashuvning muhim qirralaridan biri bolaning o'ziga xos jihatlariga putur yetkazmagan holda unda o'z-o'zini hurmat qilish, doimiy ravishda barkamollikka erishishga intilish kabi sifatlarni qaror toptirishni nazarda tutadi. Olimlarning ta'kidlashicha, bolaning xarakteri asosan u 5 yoshga to'lguniga qadar shakllanadi, keyingi yosh bosqichlarida esa shaxsiy xususiyatlari bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Demak, bola shaxsining qanday shakllanishi uning kelajakdagi hayot mazmunini belgilab beradi.

O'zbek oilalarida farzand tarbiyasida qo'llaniladigan, tajribada sinalgan va milliy asosga tayanadigan metod hamda usullar mavjud bo'lib, ularga tushuntirish, odatlantirish, o'rgatish, mashq qildirish, bolalarning kundalik



rejimini tashkil etish, ibrat-namuna ko'rsatish, iltimos qilish, yolborish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, maslahat berish, o'git-nasihat qilish, undash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, olqishlash, oq yo'l tilash, yupatish, ko'nglini ko'tarish, taqiqlash (man etish), ta'na qilish, gina va o'pka bildirish, qoralash, tanbeh berish, yuziga solish, uzr so'rash, majbur etish, zaharxandalik, ayblash, nafratlanish, gaplashmay qo'yish (arazlash), aybini iqrorg qildirish (qizartirish), qo'rqitish, mulzam qilish, ogohlantirish, ont-qasam ichirish, do'q-po'pisa qilish, siylash va boshqa tarbiyaviy ta'sir vositalarini kiritish mumkin. Ushbu vositalarning har biridan o'z o'rnida va oqilona foydalanish kelajakda barkamol insonni tarbiyalashda samarali natija berishi shubhasizdir.

Bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda ota-onalar, asosan, ikki metoddan foydalanishlari lozim. Birinchisi – ishonitirish metodi bo'lib, bunda bolaga kichik yoshidanoq muayyan xatti-harakatni bajarish zarurligi uqtiriladi. Bola o'zi amalga oshirgan ishning foydali va zarurligiga ertak hamda doston qahramonlari timsolida ishonitiriladi. Masalan, bolaga ovqatlanishdan oldin qo'lini yuvish, o'z o'rnini yig'ishtirish, o'yinchoqlarini tartib bilan joyiga qo'yish, do'stlashish va do'stga sadoqatli bo'lishning foydasi ertaklar asosida yaratilgan diafilmlar va kinofilmlardagi obrazlar orqali tushuntiriladi.

Ikkinchi metod bolalarni ertak qahramonlaridan ta'sirlanib faoliyat ko'rsatish orqali ijobiy fazilatlarni egalashga undashdan iborat. Bolalarni mehnatsevarlik, yaxshilik va sabr-bardoshga chorlaydigan maqollardan unumli foydalanish bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Bola muayyan ijobiy faoliyatni izchil va tartibli ravishda takrorlagan sari bu holat odatga aylanadi. Odatlanish kundalik tartib-intizomga rioya qilish, salomlashish odobi, do'stga samimiy munosabatda bo'lish, ota-onaga hurmat ko'rsatish kabi bir qator tarbiyaviy faoliyatlarni qamrab oladi.

Bolada yaxshi xulq va odob-axloq nishonalari, asosan, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali qaror topadi. Chunki asardagi qahramonlar bolalarning ongida jonli obraz sifatida gavdalanadi va ularning xatti-harakatlari bolalar uchun ibrat vazifasini bajaradi. Masalan, qanoti singan qushga dehqonning g'amxo'rlik qilishi yoki baliq bergan kasb-nasibaga qanoat qilmagan kampirning qashshoqlashib qolishi bolalarga tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Natijada ularda ochko'zlikka nisbatan nafrat, mehribonlik va qanoatlilik tuyg'usi shakllanadi.

Ota-onalar bolalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirish jarayonida xalq qahramonlarining shaxsiy namunasidan samarali foydalanishlari zarur. Bu borada ertak va doston qahramonlari muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ular timsolida bolalarda ish va so'z birligi, so'zga sadoqat, halollik kabi fazilatlar qaror topadi. Xalq og'zaki ijodi asosida tarbiya jarayonida ishonitirish bilan bir qatorda rag'batlantirish, isbotlash, ta'sir etish va ibrat-namundan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari orqali tarbiyalashda rag'batlantirish alohida o'rin tutadi. Rag'batlantirish, asosan, bolalarni ijobiy qahramonlarga qiyoslash orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, "Mening Alpomishim", "Go'ro'g'li sultonday pahlavon bolam", "Jaloliddin Manguberdidek mard o'g'lim", "Oybarchin qizim", "Qaldirg'ochim" kabi iboralar bola ruhiyatida o'zini xalq qahramonlariga o'xshash istagini shakllantiradi va yangi faoliyatlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Ota-onaning maqtovi va ma'qullashi bolaning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi, biroq bunday rag'batlantirishda me'yor saqlanishi muhimdir.

Oilada bolalar tarbiyasida tartiblilik, insoniylik, kuzatuvchanlik, tirishqoqlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda ertaklar, dostonlar va rivoyatlardan ham samarali foydalanish lozim. Shu bilan birga, oilada bolalar kitobxonligini yo'lga qo'yishda ota-onalar alohida mas'uliyat bilan yondashishlari zarur. Oila kutubxonasi folklor asarlarining yetarli bo'lishi bola ruhiyati va qiziqishlariga mos keladi. Yoshligidan bolada kitobga muhabbat uyg'otish ota-onalar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarga xalq qahramonlari obrazi aks etgan rangli, rasmlil ertak, rivoyat va hikoyatlarni taqdim etish, ularni o'qib berish hamda shaxsiy kutubxonani tashkil etish tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. Ushbu kutubxonada xalq og'zaki ijodiga oid asarlarning mavjudligiga ota-onalar alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Nutq insonning fikr va hissiyotlarini ifodalash, muloqotga kirishishida muhim vosita bo'lib, bu holat bola rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bola bir yoshga yetgach, so'zlarni o'zlashtirish layoqati shakllana boshlaydi. Shu davrda bola bilan ko'proq muloqotda bo'lish, uning "Nima uchun?", "Bu nima?", "Bu kim?" kabi savollariga sabr bilan javob berish, atrof-olam va ertak qahramonlari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi hamda keyinchalik maktabda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga zamin yaratadi. Xalq og'zaki ijodiga oid ertak, she'r va qo'shiqlarning jarangdor va obrazli tili bolalarda ona tili tovush va so'z boyligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Maktab yoshidagi bolalar badiiy nutq bilan tanishish jarayonida o'z so'z boyligini yangi tushunchalar hisobiga boyitib boradilar. Maktablar, klublar va madaniyat saroylari huzuridagi turli shakldagi kutubxonalar aholiga pedagogik bilimlarni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda "Ota-onalar maktabi"ning o'zni alohidadir. Turli kasb egalari bo'lgan ota-onalar uchun pedagogika va tarbiya masalalariga oid bilimlarni tizimli ravishda yetkazish muhim bo'lib, "Ota-onalar maktabi"ni mahalla va maktablar huzurida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maktab dasturiga pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya hamda oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyotiga oid fanlar kiritilishi zarur. Mashg'ulotlarni pedagog, psixolog, shifokor, yurist,

adabiyotshunos va tilshunos mutaxassislar olib borishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar ota-onalarga kundalik tarbiyaviy vazifalarni samarali hal etishda yaqindan yordam beradi va bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalash mahoratini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oila pedagogikasining hayot tajribalaridan orqada qolayotganligi uning samaradorligini oshirish yo'llarini izlashni taqozo qilmoqda. Jamiyat hayoti va shaxs tafakkurida ro'y berayotgan murakkab pedagogik jarayonlar o'z vaqtida ilmiy yechimlarini topishi lozim. Aks holda, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari ezgulik, imon va diyonatni o'zida mujassamlashtirgan insonlar faoliyatini targ'ib qiladi. Ushbu asarlar tinchlik, birodarlik, do'stlik, hamkorlik va ezgulik kabi insoniy fazilatlarni ulug'laydi. Tinchlikka rahna soluvchi, birodarkushlikka asoslangan, xunrezlik va buzg'unchilikni keltirib chiqaruvchi har qanday qarashlarni qoralaydi. Pedagogika tarixida oila tarbiyasining juda ko'plab namunalari uchraydi. Yoshlarni noto'g'ri g'oyalardan himoya qilishda xalq og'zaki ijodi namunalari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- xalq og'zaki ijodi namunalari ifodalangan ezgu qarashlarni bolalarga singdirishning yagona dasturini yaratish;
- yosh ota-onalarning xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarni tarbiyalash sohasidagi bilim va tajribalarini oshirish;
- ota-onalarni oila pedagogikasi, falsafa, adabiyotshunoslik, tarix, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, ma'naviyat va huquqshunoslik sohalariga oid bilimlar bilan qurollantirish;
- oilada folklor namunalari yordamida xalq pedagogikasining ijobiy qirralarini umumlashtirish;
- oilalarda xalq pedagogikasining aniq, mukammal va eng muhimi, amaliy hamda ijtimoiy-pedagogik dasturini ishlab chiqib, oila tarbiyasiga tatbiq etish.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimiz aql-idrok egalari va sofdil kishilarni yovuz kuchlar ta'siridan asrashga harakat qilganlar, oilada bolalarni ma'naviyat, imon-e'tiqod, insof va diyonat asosida tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar hamda bunda xalq og'zaki ijodi namunalari imkoniyatlaridan unumli foydalanganlar.

Yoshlarda milliy g'urur hissini tarbiyalashda oila muhiti va ota-onaning ma'naviy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzand burchlari, tejamkorlik, sabr-qanoat, o'zaro muomala munosabatlari, uy tutish va mehnat tarbiyasi masalalari xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarga singdiriladi.

Shu sababli bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalashda oilaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, ota-onaning har tomonlama o'rnak bo'lishi, bolalarda ota-ona va Vatanga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, o'zaro g'amxo'rlikni ta'minlash;
- bolalarni axloqiy bilim asoslaridan atroflicha xabardor qilish, ularning ma'rifatli va ma'naviyatli shaxslar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun qulay iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish;
- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;
- sanitariya-gigiena va estetik me'yorlarni singdirish, ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi kurashishda xalq og'zaki ijodi namunalari hamda xalq qahramonlari obrazlaridan unumli foydalanish.

Oila tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalari qo'llanishining alohida ahamiyati shundaki, ota-ona yoki bobo-buvi ongli ravishda muayyan tarbiyaviy maqsadni belgilaydi va ushbu maqsadga erishish yo'lida ertaklar, maqollar, dostonlar hamda topishmoqlardan samarali foydalanadi. Xalq og'zaki ijodi vositasida oilada bolalarni tarbiyalash jarayonida tarbiya metodlaridan oqilona foydalanish talab etiladi. Bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish zarur:

1. Xalq og'zaki ijodi vositasida tarbiyalashning maqsad va vazifalari.
2. Ushbu tarbiyaning mazmuni.
3. Bolalarning yosh xususiyatlari.
4. Bolalarning fikrlash darajasi.
5. Tarbiyalanuvchilarning individual va shaxsiy xususiyatlari.



6. Tarbiya jarayonining boshqaruv elementlari.
7. Ota-onalarning xalq og'zaki ijodidan xabardorlik darajasi.
8. Tarbiyaviy jarayondan kutiladigan natijalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, oilada bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalash serqirra jarayon bo'lib, u o'ziga xos va takrorlanmas xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali oilada bola felitsitologik (italyancha "felisite" – baxt), iqtisodiy, estetik, kommunikativ hamda relaksatsiya (emotional, ruhiy va jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini qayta tiklash) funksiyalariga ega bo'ladi. Bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda oilada xalq og'zaki ijodi namunalari imkoniyatlaridan tizimli va izchil ravishda, aniq metodlar asosida foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxmudov Y. F. Milliy g'urur – ma'naviy komillik mezon. Toshkent: Dizayn-Press, 2011. 327 b.
2. Egamberdiyeva N., Raxmatullayeva D., Ismoilova G. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonlarini boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2011-yil, 3–4 b.
3. Otamuratov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003-yil, 113 b.
4. Kadirova Sh. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar: xalqaro ilmiy-uslubiy jurnal, 75–80 b.
5. Khudoyberdievna Kadirova Shaxnoza. The pedagogical culture of the educator in the formation of a sense of national pride in preschool adults. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 109–115.
6. Kadirova Sh. X. Formation of national attention in innovative education – preschool educational schools. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, peer-reviewed journal.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.